

KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHGA YO’NALTIRILGAN INNOVATSION MUHITNI YARATISH SHART-SHAROITLARI

Madmarova Gulchehra Qodirovna
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21129052>

Annotatsiya: Innovatsion ta’lim muhiti bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda muhim metodik omil sifatida namoyon bo’lib, u faqat texnologik vositalar majmui emas, balki pedagogik, psixologik, didaktik va refleksiv omillarning o’zaro uyg’unlashgan yaxlit tizimini ifodalaydi. Bunday muhitda ta’lim jarayoni an’anaviy bilim uzatishga yo’naltirilgan modeldan, talabani shaxsiy tajribasi, ijodiy faolligi va kasbiy o’sishini qo’llab-quvvatlovchi subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanadi. Ushbu maqolada yuqoridagi masalalar yuzasidan ilmiy mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: innovatsion ta’lim, kasbiy refleksiya, ijodkorlik, ijod, kreativlik, kompetensiya, mahorat, individuallik, qobiliyat, shaxsiy o’z-o’zini rivojlantirish.

Metodik nuqtayi nazardan innovatsion ta’lim muhiti bo’lajak o’qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida interfaol, vitagen, raqamli va refleksiv texnologiyalarning integratsiyasi orqali tashkil etilib, ta’lim mazmuni va shakllarining moslashuvchanligini ta’minlaydi. Ushbu muhit talabalarda pedagogik vaziyatlarni ijodiy tahlil qilish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish hamda o’z faoliyatiga refleksiv yondashish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari oliy pedagogik ta’lim muassasalarining 60110100 – Pedagogika (qo’shimcha tarbiya fani o’qituvchisi) yo’nalishi 4-kurs talabari bilan 7- va 8-semestrlarida tashkil etildi. Olib borilgan eksperimental ishlar ushbu yo’nalishda majburiy fan sifatida o’qitiladigan “Kreativ pedagogika” fani asosida olib borildi. Aynan ushbu fanni tanlab olishdan maqsad, talabalar bu fanda kreativlik, ijodkorlik, divergent tafakkur, nostandart vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda bir nechta yechim topish kabi ko’nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Tajriba-sinov ishlari olib borilgan mashg’ulotlar Andijon davlat pedagogika institutining pedagogika va psixologiya kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan “Kreativ pedagogika” fanining o’quv dasturi asosida tashkil etildi. Talabalarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishga asoslangan mashg’ulotlar, topshiriqlar, mustaqil ta’lim uchun ishlab chiqilgan mashqlar to’plami shular jumlasidan. Quyidagi ushbu fanga ajratilgan soatlar va dars loyihasiga namunalarni ko’rib chiqamiz (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Kreativ pedagogika fanining mazmuni va mavzular ro’yxati

Fan/modul kodi KePed410	O’quv yili 2024-2025	Semestr 7-8	ECTS – Kreditlar 6-4	
Fan/mavzu turi Majburiy	Ta’lim tili O’zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6-4	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)

	Kreativ pedagogika	150	150	300
T/R	Mavzu nomi	Ajratilgan soat		
		M	A	S
1	Kreativ pedagogika fan sifatida	2	2	2
2	Kreativ ta’lim muhiti: mohiyati, xususiyatlari	2	2	2
3	Didaktik ta’minotni yaratishga kreativ yondashuv	2	2	2
4	Bo’lajak o’qituvchilarda kreativ tasavvurni rivojlanishi va pedagogikada ilmiy ijodkorlik	2	2	2
5	Kreativ kompetensiya modelining shakllanishi	2	2	2
6	O’qituvchining ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvi	2	2	2
7	Kreativ topshiriqlar tizimi. Kreativ darsning innovatsion tuzilishi	2	2	2
8	Pedagogik qobiliyatni shakllantirishda kreativ yondashuv	2	2	2
9	Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda kreativ yondashuv	2	2	2
10	Kreativ kompetensiyaning mazmuni va tuzilishi	2	2	2
11	Ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning ma’naviy kompetensiyalarini shakllantirishda kreativ yondashuv	2	2	4
12	O’qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish usullari	2	2	4
13	Pedagogik muloqot – o’qituvchining ijodiy faoliyati sifatida	2	2	4
14	Bo’lajak o’qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirishda AKTning ahamiyati	2	2	4
15	Bo’lajak o’qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o’rni	2	2	4
16	Umumta’lim maktablarida tarbiya fanini o’qitishda kreativ yondashuv	2	4	4
17	O’quv topshiriqlarini ishlab chiqishga kreativ yondashuv	2	4	4
18	Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda kreativ yondashuv	2	4	4
19	Ijodiy vazifalar tizimi	2	4	4
20	NFTM-TRIZ uzluksiz kreativ ta’lim tizimining konseptual asoslari va modeli	2	4	4
	Jami:	40	50	60

Fanni o’qitishdan maqsad – bakalavr talabalariga ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari va strategiyasi, tanqidiy va ijodiy fikrlash, yangiliklarini o’zlashtirish, ularni amaliyotda sifatli qo’llash, to’ldirish va yangilash qobiliyatiga ega bo’lishga yo’naltiradigan nazariy va amaliy ma’lumotlar berishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarni kreativ pedagogika asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik jarayonni kreativ samarali tashkil etish uchun zarur ko’nikmalarni egallash; kreativ pedagogika fanining o’ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy yangi texnologiyalarni keng doirada qo’llay olishga yo’naltirish; pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni oshirish; yangiliklarni yaratadigan ijodiy shaxsni shakllantirishdan iborat.

Yuqorida jadvalda berilgan mavzularni yangi o’qitish metodikasi va texnologiyalari asosida tashkil etishda birinchi navbatda innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish shart-sharoitlarini ta’minlash lozim.

Innovatsion ta’lim muhitini yaratish shart-sharoitlari deganda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishni ta’minlaydigan, ta’lim jarayonining mazmuni, shakli, texnologiyalari va boshqaruv mexanizmlarini maqsadga muvofiq tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik, psixologik va tashkiliy omillar majmui tushuniladi. Ushbu shart-sharoitlar ta’lim jarayonini an’anaviy reproduktiv modeldan ijodiy, refleksiv va innovatsion faoliyatga yo’naltirilgan modelga o’tkazishni nazarda tutadi.

Innovatsion ta’lim muhitida ta’limga ijodiy yondashuv o’qituvchidan o’quv mashg’ulotini loyihalash jarayoniga ijodiy, tizimli va ilmiy asoslangan tarzda yondashishni talab qiladi. Bunday yondashuvda o’qituvchi faqat dars mazmunini rejalashtirish bilan cheklanmay, balki talabalarning o’quv-bilish faoliyatini boshqarish, ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va refleksiv tafakkurni rivojlantirishni ham ko’zda tutadi.

O’quv mashg’ulotiga tayyorgarlik jarayonida o’qituvchi har bir mavzu bo’yicha ta’lim maqsadlarini aniq belgilashi, kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik vazifalarni to’g’ri qo’yishi, kutilayotgan o’quv faoliyati natijalarini oldindan prognoz qilishi lozim. Shu bilan birga, innovatsion ta’lim muhiti talablaridan kelib chiqqan holda, ta’limni tashkil etishning shakllari, interfaol, vitagen, raqamli va refleksiv metod hamda vositalarini maqsadga muvofiq tanlash, o’quv vaqtini oqilona taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayon natijasida o’qituvchi va talabalar faoliyatining aniq tartiblangan, mantiqan izchil va ijodiy xarakterga ega bo’lgan algoritmi shakllanadi. Ana shu tarzda o’quv jarayonini texnologik asosda loyihalay olgan o’qituvchigina innovatsion ta’lim muhiti sharoitida talabalarning o’quv-bilish faoliyatini erkin boshqara oladi, ularda pedagogik tafakkur, ijodiy tashabbuskorlik va kasbiy refleksiyani samarali rivojlantira oladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A.Do’stmuhammedova, G.Baykunusva, G.Ziyaviddinova "Umumiy psixologiya "(Yosh davirlar va pedagogik psixologiya) 2020-yil
2. Z.T.Nishanova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova."Rivojlantirish psixologiyasi pedagogik psixologiya" Toshkent- 2019-yil.
3. B.Karimova "Ijtimoiy psixologiya" Toshkent-2007.
4. Cramond, B. & Wang, L. (2012). The audacity of creativity assessment. In S. Hunsaker (ed.), Identification of students for gifted and talented education services: Theory and practice, pp. 337–361. Mansfield, CT: Creative Learning Press.
5. Dewey, J. (1938/2008). The Later Works of John Dewey, Vol. 4, 1925–1953: 1929: The Quest for Certainty (Collected Works of John Dewey). Carbondale, IL: Southern Illinois University Press.